

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani

Xayrullayeva Robiya

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi, Oltinsoy tuman
22-umumta'lim maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning ilk romani, o'zbek romanlari debochasi bo'lgan "O'tkan kunlar" romani haqida qarashlar, undagi muhabbat mojarolari va qaysidir ma'noda, muammolar kelib chiqishining asosiy sabablari haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Zaynab, muhabbat, kundoshlik, zulm, Azizbek

Annotation: This article is about views on the first novel of the founder of Uzbek novel, Abdulla Qadiri, "Otkan Kunlar", which is a prelude to Uzbek novels, about the love conflicts in it and, in a sense, about the main reasons for the origin of problems. walks

Key words: Otabek, Kumush, Yusufbek Haji, Zainab, love, daily life, oppression, Azizbek

Аннотация: В статье речь идет о взглядах на первый роман основоположника узбекского романа Абдуллы Кадыри «Откан кунлар», который является прелюдией к узбекским романам, о любовных конфликтах в нем и, в некотором смысле, об основных причинах для возникновения проблем. прогулки

Ключевые слова: Отабек, Кумуш, Юсуфбек Хаджи, Зайнаб, любовь, повседневность, угнетение, Азизбек

Roman XIX asr voqealarini o'z ichiga olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojaviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. Boshqa yirik epik asarlardagi kabi „O'tkan kunlar“da ham hikoyanavislikning ko'p planiligi, ikkilamchi syujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar bilan mavjud. Ilg'or fikrlarni olg'a suruvchi Otabek obrazi romanning g'oyaviy va kompozitsion markazi hisoblanadi. U savdodagi eskirgan iqtisodiy munosabatlarga qarshi chiqib, oila va turmush muammolariga yangicha qarashga amal qiladi. Adabiyotshunoslar Abdulla Qodiriy o'z qahramoni nomidan o'zining shaxsiy o'y-fikrlarini so'zlagan, deb bilishadi. Yozuvchi bir vaqtning o'zida o'zbek ayolining taqdirini ham kuzatib boradi. Ayrim an'analar, jumladan, ko'pxotinlik, Kumush va Zaynabning o'rtasida o'limga olib boruvchi xusumatga sabab bo'ladi. Yozuvchi go'zal, Otabekka bo'lgan sevgi bilan ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Biroq asar fojia bilan yakunlanadi: Kumushbibi kundoshi tomonidan zaharlab o'ldiriladi, Otabek esa Vatanini himoya qilaman deb vafot etadi. Adibning obraz yaratishi mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldordir. Zero, ko'rkam adabiyotdek san'at dunyosida badiiy so'z — poetik nutq muhim sanaladi: so'z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi. Abdulla Qodiriy so'zida o'quvchini o'ziga bog'lab turadigan, insonni o'ziga ohanrabodek tortadigan quvvat bor. Buni o'quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so'zning ta'siri bois Kumush o'lgan sahnada ho'ng-ho'ng yig'laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizodning o'zi yig'lab yozilgan. Demak, adibning titragan, ichikkan, o'ksigan yuragi shu sahifalarga ko'chgan. Badiiy ijoddagi bir qonuniyat shuki, mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi, yig'lab yozilgan sahifalar yig'lab o'qiladi. Chinakam adibning estetik dunyosi, ijodkor qalbi ana shunday sahifalarga muhrlanadi. Mana ba'zi jumalarga misol:

- *Kim yig'latdi sizni?*
- *Yig'labmanmi?*



- *Ko'zingiz, koprakingiz...*
- *O'zi shunaqa...*
- *Yig'latgan men emasmi?*

Abdulla Qodiriy ushbu romanida so'zlari bilan kitobxon qalbiga kirib boradi; shevalardan, iboralarda, ko'cha tilidan foydalanadi. Bu qochirimlar, kinoya va iboralar o'qug'uvchini sehrlab qo'yadi go'yo. "Tana buzoqning turqi tuqg'anig'a tamg'a" yoki "...oldidagi ovni ko'rmay, uzoqdagi yovni ko'radi", "Xonning qo'yini boqish uchun, qovoqlarni belga taqish uchun...", "Endi ko'rsam, miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelinim bor ekan" kabi yuzlab xalqona iboralardagi saj, ritm va latiflik adib asarlari tiliga, qahramonlari nutqiga joziba baxsh etadi.

Endi esa muammolarning kelib chiqish sabablarini ham muhokama qilsak.

Menimcha, Otabek ixtiyorsiz ravishda Kumush o'limining bosh sababchisiga aylanib qolgan. Buning bir necha sabablarini quyidagi voqealardan ko'rish mumkin:

Birinchidan , Otabek sevib qolganligi bois ota-ona roziligisiz uylanib oldi. Ota –ona roziligisiz qilingan ish har qadamda qurbonlik so'rashi bizga ayon.

Ikkinchidan , marg'ilonlik kelinni ko'rmay turib ona tomonidan aytilgan qarg'ishlar vaqti kelib Kumushga urmadimikan ? " O'zbek oyim yuqoridagi o'zining itob va xitobiga eridan bir jilmayib qo'yish javobini olib, dami ichiga tushadir va chor-nochor o'ttuz kunlab bir zamonni o'zicha marg'ilonliqni qarg'ash bilan kechiradir"

Uchinchidan, Otabek xotin ustiga xotin oldi. Mashoyixlarimiz "Ikki xotin olibman, bir baloga qolibman" demaydilarmi, - axir? Ota-onasiga qat'iy turib, "yo'q" deyish mumkinmasmidi? Bechora Oftob oyim aytmoqchi: "Eri ming yaxshi bo'lsin, baribir kundosh kundoshligini qila beradir". Kundoshlikka esa bizning "madaniyatli" Otabegimiz yo'l ochib berdiku, axir.

To'rtinchidan , yolg'on gap ham kishi umrining zomini emasmikin-a?! Otabek Zaynabga qaramadi, qaramaganligini yolg'on bilan yopmoqchi bo'ldi:

- *Menga uylanganingizga qancha bo'ldi?*
- *Ikki ...*
- *Meni xotin o'rnida ko'rmaysiz?*
- *... Sizga o'z og'zim bilan iqrar qilishga uyalaman...*
- *Uyalmang.*
- *Uyalmasam... mijozim zaif..., sizdan uzoqda yurishimning sabababi ham shunda.*

Shunday qilib, Otabek o'zi bilmagan holda bir ojizaning, jon qadar sevgan sevgilisining o'limiga beixtiyor sababchi bo'lib qoldi. Bularning barchasidan men shunday xulosaga keldim; har qadamimizda ota-ona roziligini olishimiz, rost gapirishga odatlanishimiz judayam zarur. Zero, xalqimiz: " Olqish olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir", - degan.

Asosiy voqea – Otabek va Kumushbibining muhabbat qissasi haqida ham har xil mulohazalar bor. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu qissaning to'qimaligini, haqiqatda Marg'ilonda Kumushbibi degan judayam go'zal qiz bo'lganligini, lekin yosh bo'lib dunyodan o'tganini aytadilar. Ba'zi tadqiqodchilarning fikricha, haqiqatda shunday voqe'lik bo'lgan. Hatto hozirda Marg'ilonda Kumushbibi va Otabekning avlodlari borligini ta'kidlashadi. Muallif esa o'z asari so'ngida shunday deydi:



“Keyingi Marg’ilon borishimda yaqin o’rtoqlardan Yodgorbek to’g’risinda surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o’n to’qquz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o’g’ul qolibdir. O’g’ullaridan bittasi bu kunda Marg’ilonning mas’ul ishchilaridan bo’lib, ikkinchisi Farg’ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o’luk-tirigi ma’lum emas, deydilar”.

Asardagi tarixiy shaxslar: Xudoyorxon, Musulmonqul, O’tabboq qushbegi, Normuhammad qushbegi haqiqatda bo’lgan. Habibulla Qodiriy o’z asarida otamning aytishlaricha, Normuhammad qushbegi Toshkent beklaridan eng tuzugi bo’lgan ekan, kabi mulohazalarni izoh qilib ham keltiradi. Otabek va Kumushbibi degan asarda berilgan taqdirdagi aniq shaxslar borligi haqida ma’lumotim yo’q. Balki nomlarni almashtirilgan bo’lishi ham mumkin. Bu haqida Abdulla Qodiriyning farzandi ham fikr yuritadi:

“Dadamning:

– O’zbek oyim – bu Josiyat bibing, Oftob oyim xonim bibing, Kumush esa – Oyukumush opang, – deb kulganlarini xotirlayman.

Garchi Qodiriy bu so’zlarni kulib aytgan bo’lsalar ham o’ylab turib, bunga ishongingiz keladi. Chunki Qodiriy ishora qilgan shaxslar, nazarimda, xuddi roman qahramonlariga o’xshar edi.

Josiyat bibim – dumbul, tabiatli, gapdon, bir uy xotinni o’z og’ziga qaratib o’tiruvchi, unchamunchani pisand qilmovchi, omi bo’lsa ham, donolikda, hatto, dadamdan o’zini yuqori tutuvchi, qiziq fe’lli ayol edi. Bibim hamma to’ylarga ham “kavshim ko’chada qolgan emas”, deb boravermas, borsalar ham, to’y, albatta, u kishining ra’yiga qarab jo’nashtirilar edi. Bibim bug’doyrang, quralayko’z, cho’ziqqa moyil, kelishgan yuzli, baland, mutanosib qomatli edilar. U kishi, to’y, mehmonlarga borsalar, qorami, ko’kmi, dakana ustidan, dika ro’mol o’rar, ko’zlariga surma qo’yar, egnilariga xonatlas ko’ylak, ustidan mursak, oyoqqa amirkon mahsi kavsh kiyar edilar. Movzin qomatlariga bu kiyimlar shunday yarashib tushardiki, chindan O’zbek oyimga aylanar edilar...

Xonim bibim – oyimning onasi, o’rta bo’y, chiroyli oq yuzli, yumshoqtabiat, mayin so’zli, mulohazali ayol edilar. Ular ba’zan biznikiga mehmon bo’lib kelsalar, uyimiz go’yo to’lib ketganday bo’lardi. Dadam bibini juda hurmat qilar, “oyi” deb atar edilar.

Oyukumush opam – qo’ng’iroqdek tovushli, aql-idrok, husnda haqiqatdan Kumushni eslatuvchi edi.

Eshonguzar mahallamizda mulla Alijon ismli dadamning domlasi bo’lardi. Qodiriy bu kishini “ham ustoz, ham yetuk inson” deb nihoyatda hurmat qilardilar. Domlaning yaxshi xislati shundaki, u oqko’ngil, kibrsiz, ta’magir emas, sabr-qanoatli, kamtar, mutolaasi zo’r olim, der edilar otam. Domlaning ichki dunyosi ham nurga to’lgan kabi edi. Gapni o’ylab, bosiq, sodda, yoqimli so’zlardilar. Soz’alrida mantiqsiz ortiqcha iboralar mutlaqo bo’lmas, tinglovchi go’yo huzurlanar, yana-yana tinglasam der edi. Bunday otalar garchi ko’p uchrasa-da, negadir, ayniqsa, bu kishini Yusufbek hoji obraziga juda-juda o’xshataman”¹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Qodiriy. Otam haqida. Sharq nashriyoti. – T. 1992.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T, 1972.
3. A.Qodiriy. O’tkan kunlar. Yoshlar nashriyoti. – T. 2021

¹ “Otam haqida” – Habibulla Qodiriy

